

Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasi

Aliqulov, Humoyun Tohir o'g'li

Национальная таксономия «зеленой экономики»

Аликулов, Хумоюн Тохир угли

National green economy taxonomy

Alikulov, Khumoyun Tokhir ugli

Received: January 09, 2024 Revised: January 11, 2024 Accepted: January 25, 2024 Published Online: April 01, 2024

Annotatsiya: Hozirgi jadal suratlar bilan rivojlanayotgan davrda iqtisodiyotning bosh masalasi – cheklangan resurslar hisobiga insonning cheksiz ehtiyojlarini qondirish bo'lib, bugungi kunda bu masala yanada dolzarbligini kasb etmoqda. Chunki aholi sonining keskin oshishi, jahon iqtisodiyotida daromadlilik darajasi oshgan davlatlarning ko'payishi bu qonuniyatning dolzarbliktan tushmaganini ko'rsatmoqda. Zamondan ortda qolmagan holda O'zbekiston Respublikasida ham “yashil iqtisodiyot”ga o'tish va uni yanada rivojlantirish, atrof-muhitga va ekologiyaga zarar yetkazmasdan biznes va tadbirkorlik yuritishni targ'ib qilish uchun bir qancha qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 29.09.2023 yildagi “Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 514-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yilda “Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 561-sonli qarori qabul qilinishi ham ayni muddao bo'ldi. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga asoslangan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda “yashil texnologiyalar va iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlari, “yashil iqtisodiyot”ning mohiyati, milliy iqtisodiyotimizga ta'siri, milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi tushunchasi hamda ushbu masalalarni qamrab olgan Vazirlar Mahkamasining “Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qonunining mazmun va mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi, ekologik risklar, energiya samarador texnologiyalar, tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslar, issiqxona gazlari, ekoturizm, “yashil” loyihalar taksonomiyasi.

Аннотация: В современный бурно развивающийся период основным вопросом экономики является удовлетворение неограниченных потребностей людей за счет ограниченных ресурсов, и сегодня этот вопрос становится все более актуальным. Потому что резкий рост населения, увеличение стран с повышенным уровнем доходов в мировой экономике показывают, что этот закон не потерял своей актуальности. В целях перехода к «зеленой экономике» и дальнейшего ее развития, содействия развитию бизнеса и предпринимательства без ущерба окружающей среде и экологии, в Республике Узбекистан принимается ряд законов и подзаконных актов. В частности, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 29.09.2023 №514 «О мерах по организации системы управления переходом к зеленой экономике», Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25.10.2023 № 561 «Утверждение таксономии национальной «зеленой экономики» были приняты вовремя. В данной научной статье в развитии национальной экономики на основе «зеленой экономики» в Узбекистане рассматриваются «возможности использования зеленых технологий и экономических механизмов, сущность «зеленой экономики», влияние на нашу национальную экономику, Концепция таксономии национальной «зеленой» экономики и Кабинет Министров, освещающий эти вопросы. Анализируется содержание и сущность закона «Об утверждении национальной таксономии «зеленой» экономики».

Ключевые слова: «зеленая» экономика, таксономия «зеленой» экономики, экологические риски, энергоэффективные технологии, стихийные бедствия, изменения климата, природные ресурсы, парниковые газы, экотуризм, таксономия «зеленых» проектов.

Annotation: In the modern rapidly developing period, the main issue of the economy is to satisfy the unlimited needs of people at the expense of limited resources, and today this issue is becoming increasingly relevant. Because the sharp increase in population and the increase in countries with high income levels in the world economy show that this law has not lost its relevance. In order to transition to a “green economy” and its further development, to promote the development of business and entrepreneurship without harming the environment and ecology, a number of laws and regulations are being adopted in the Republic of Uzbekistan. In particular, the resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 09.29.2023 No. 514 “On measures to organize a management system for the transition to a green economy”, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 10.25.2023 No. 561 “Approval of the taxonomy of the national “green economy”” were adopted on time. This scientific article in the development of the national economy based on the “green” economy in Uzbekistan examines “the possibilities of using green technologies and economic mechanisms, the essence of the “green economy”, the impact on our national economy, the Concept of taxonomy of the national “green” economy and the Cabinet of Ministers covering these questions. The content and essence of the law “On approval of the national taxonomy of the green economy” is analyzed.

Key words: “green” economy, “green” economy taxonomy, environmental risks, energy efficient technologies, natural disasters, climate change, natural resources, greenhouse gases, ecotourism, taxonomy of “green” projects.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish iqtisodiyotning bosh maqsadlaridan biridir. Resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha jahon tajribasi ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investitsiyalarni talab etishi, ustuvor vazifa va e'tibor – tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya tejankor texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan “2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasi” muhim dasturilamal hisoblanadi [1]. “Yashil iqtisodiyot”ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi [2]. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish

jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil iqtisodiyot”ning mohiyati va unga o'tish konsepsiyasi masalalari Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olimlar D.Pirs va E.Barbiyerlarning “Yashil iqtisodiyot” uchun reja (Blueprint for a Green Economy)” nomli asarida birinchilar qatorida ochib berilgan [4]. O.V.Bashorina, I.M.Temkina “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jamiyatning barqaror rivojlanishi, kambag'allikni qisqartirish asosidir” deb baholashgan [5]. A.V.Neverov, Vodopyanova “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayonida davlat inson kapitali, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital va moliyaviy kapitallarni muvofiqlashtirib foydalanish” zarurligini ta'kidlaydilar [6]. Mualliflar guruhi “dunyoga xavf solayotgan CO2 zaharli gazlar inqirozi to'g'risida” xabar beradilar [7]. “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish uchun juda katta

imkoniyatlar mavjudligi, iqtisodiyotni yashillashtirish uchun “yashil” investitsiyalar kerak, yashil tarmoqlarni moliyalash, yangi ish o‘rinlarini barpo qilish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash mumkin”, - degan fikrni iqtisodchi olim N.N.Yas’halova ilgari suradi [8].

Iqtisodchi olimlar N.Piskunov va N.V.Paxomov “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish “musobaqa”sida Shvetsiya, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari yetakchilik qilmoqda”, - deb ta’kidlaydilar [9].

Respublikamizda “yashil iqtisodiyot” va uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yechimlar A.V.Vahobov, Sh.X.Xajibakiev, S.M.Xaydarov kabi qator iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlanmalari qatoridan o‘rin olgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchilar A.V.Vahobov va boshqalar “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda O‘zbekiston energiya samaradorligiga erishish, “yashil energiya” iste’moliga o‘tish, yerdagi transportni elektrlashtirish, chiqindilarni oqilona boshqarish, ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash, CO2 uglerod gaz chiqindilarni yumshatish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va bioxilmaxillikni saqlab qolish” kabi masalalarga katta e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlaydilar [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga asoslangan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda “yashil texnologiyalar va iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlari iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash va kuzatish usullari yordamida o‘rganish orqali respublikamizda atrof-muhit va insonlar salomatligiga ta’siri va cheklangan resurslardan samarali foydalanish hamda qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish aniqlanadi.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil iqtisodiyot” - bu keng siyosiy kun tartibiga va iqtisodiy maqsadlarni ijtimoiy va ekologik maqsadlarga muvofiqlashtirishga e’tibor qaratib, barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita. Yashil iqtisodiyot” inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni keltirib chiqaradigan, ekologik xatarlarni va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot deb ta’riflanadi. Eng sodda qilib aytganda, yashil iqtisodiyotni kam uglerodli, tejamkor resurslar

deb hisoblash mumkin va ijtimoiy qamrab oluvchi iqtisodiyot deb atash mumkin [11]. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif ham beriladi. “Yashil iqtisodiyot” - bu insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir [10].

O‘zbekistonda Vazirlar Mahkamasining 29.09.2023 yildagi “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 514-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “yashil o‘tish”ni ta’minlash dasturida quyidagilar nazarda tutilgan:

davlat boshqaruvi organlarivaxo jalik birlashmalarining amaldagi rahbar o‘rinbosarlaridan biriga “yashil iqtisodiyot” masalalarini muvofiqlashtirish vazifasini yuklash;

davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarida “yashil iqtisodiyot” masalalari bilan shug‘ullanishga mas’ul bo‘linmalarni belgilash.

Xususan, mas’ul rahbarlar va bo‘linmalar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organi yoki xo‘jalik birlashmasi faoliyatiga oid “yashil iqtisodiyot” masalalarini muvofiqlashtirish;

tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish tamoyillariga rioya etish;

iqtisodiyot sohasining tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini ta’minlash;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan choralarni ko‘rish;

“yashil” innovatsiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik birlashmalariga bir oy muddatda “yashil iqtisodiyot” faoliyati sohasida uch yilga moliyalashtirilgan “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash topshirildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Jahon banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilayotgan Milliy iqlim va rivojlanish hisoboti (Country Climate and Development Report – CCDD) asosida tegishli vazirliklar va idoralarga

ko rsatma va tavsiyalar yuborish topshirildi [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yilda "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-sonli qarori qabul qilindi. 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasiga (02.12.2022 yildagi PQ-436-son qaror bilan tasdiqlangan) muvofiq «yashil» turdagi faoliyatni tasniflash uchun Milliy «yashil» taksonomiyani ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Hujjat bilan «Yashil» iqtisodiyot asosiy o'rinlarining toifalarini belgilash hamda «yashil» turdagi faoliyatni tasniflash asosida muvofiqlik mezonlarini baholashni nazarda tutuvchi Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasi tasdiqlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi uni joriy etish va muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul respublika ijro etuvchi hokimiyat organi etib belgilandi.

2024 yil 1 oktabrga qadar:

"yashil" obligatsiyalar va kreditlar, shuningdek, boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan "yashil" turdagi loyihalarni tasniflash tajriba tariqasida Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi orqali amalga oshiriladi;

davlat moliyaviy ko'magidan foydalangan barcha tadbirkorlik subektlari, shu jumladan, xususiy va davlat ishtirokidagi xo'jalik birlashmalarining investitsiyaviy xarajatlari Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi asosida tasniflanadi [3].

Ma'lumot uchun: "yashil" loyihalar taksonomiyasi – barqaror rivojlanishga ko'maklashadigan va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirishga, atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasini pasaytirishga va energiya tejamkorligini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar va aktivlarni tasniflash tizimi [12].

Milliy "yashil iqtisodiyot" taksonomiyasi 7 ta sektorni o'z ichiga qamrab oldi:

1) Suv va xomashyolardan foydalanish samaradorligi. Toza suv iste'molini maishiy va ichimlik ehtiyojlari uchun kamida 30 foizga, sug'orish uchun 20 foizga hamda sanoat va texnik ehtiyojlar uchun 40 foizga kamaytirish. Yig'ilgan ikkilamchi xomashyoni kamida 80 foiz qayta ishlash. Mahsulotlar tarkibidagi ikkilamchi xomashyoning ulushini kamida 30 foizga

yetkazish.

2) Havo va tuproq sifatini yaxshilash. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamida 20 foizga kamaytirish.

3) Barqaror qishloq va o'rmon xo'jaligi, ekoturizm. Chuchuk suv iste'molini kamida 20 foizga kamaytirish; suvdan ikkilamchi foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya sarfini kamida 20 foizga kamaytirish. Turistik xizmatlar va ekologik toza marshrutlar sohasidagi milliy, xalqaro, davlatlararo ekologik standartlarga yoki ekologik yorliqlash standartlariga, shu jumladan, xorijiy davlatlarning ekologik yorliqlashning tan olingan standartlariga muvofiqligi [13], [14].

4) Yashil transport. Kam uglerodli transport vositalarini, shu jumladan, elektr transport vositalarini, vodorod, gibridd dvigatellarda ishlaydigan (<90 gramm CO2 ekv / km) transport vositalarini sotib olish.

5) Energiya samaradorligini oshirish. Bazaviy (loyihani amalga oshirishdan oldingi) ko'rsatkichga nisbatan energiya sarfini minimal 20 foizga kamaytirish. ISO 50001 "Energiyani boshqarish tizimlari. Foydalanish bo'yicha talablar va ko'rsatmalar" yoki xalqaro miqyosda tan olingan shunga o'xshash standartlarga muvofiqligi.

6) Qayta tiklanuvchi energiya. Shamol generatorlari, shamol nasoslari, shamol turbinalari, Markazlashgan va markazlashmagan quyosh elektrostansiyalar, shu jumladan, konsentrlangan quyosh elektr stansiyalari (CSP), quyosh fotoelektr energiyasi (PV), markazlashmagan quyosh fotoelektr stansiya tashkil qilish va foydalanish.

7) Yashil binolar. Yashil qurilish materiallari va mahsulotlari tizimlarini ishlab chiqarish va qo'llash Yangi yashil binolarni qurish (tijorat, jamoat, sanoat va turar joy).

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Aliqulov, Humoyun Tohir o'g'li** - Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi / **Аликулов, Хумоюн Тохир угли** - Университет экономики и педагогики Стажер-преподаватель кафедры «Экономика» / **Alikulov, Khumoyun Tokhir ugli** - University of Economics and Pedagogy Trainee teacher at the Department of Economics

<https://orcid.org/0009-0005-8664-3692>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori.
- [2] Vazirlar Mahkamasining 29.09.2023 yildagi "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514 -son qarori.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yilda "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-sonli qarori.
- [4] David William Pearce, Anil Markandya, Edward Burr Barbier, Edward Barbier Blueprint for a Green Economy London: Earthscan, 1989. – 192 p.
- [5] Башорина О.В., Темкина И.М. Переход к "зеленой экономике" как фактор устойчивого развития и преодоления бедности. – Урал, 2012. – 201 с.
- [6] Неверов А.В., Водопянова Т.П. Экономика природопользования. – Минск, 2019. – 117 с.
- [7] "Зеленая экономика" – главный тренд нового десятилетия. – М., 2021. С. 7-13.
- [8] Яшалова Н.Н. "Зеленая" экономика: региональный аспект. – Санкт-Петербург, 2014 – 194 с.
- [9] Пискунов Н., Пахомов Н.В. Анализ мирового опыта перехода к "зеленой экономике". – М., 2022. – 213 с.
- [10] Yashil iqtisodiyot: Darslik. /A.V.Vaxabov, SH.X.Xajibakiyev va boshqalar – Toshkent: "Universitet", 2020. -262 b.
- [11] <https://www.forestprotection.com/uz/avantajlar/yesil-ekonomiye-katki/>
- [12] https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekistonda_milliy_yashil_iqtisodiet_taksonomiyasi_joriy_etiladi
- [13] Tokhirova S. G. Directions Diversify the Production in Peasant (Dekhkan) Farms //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – S. 110-117
- [14] Sayyora G., Nasimovna N., Tokhirova A. Prospects of Innovative Development of the Agricultural Sector. – 2023.